

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

NATIONAL MENTALITY AND THE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE FEMALE IMAGE: ON THE EXAMPLE OF KOREAN AND UZBEK LITERATURE

Shakhlo Shukhratovna Bazarova

Associate Professor

Samarkand State Institute of Foreign Languages

shahlobazarova84@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: female image, Korean literature, Uzbek literature, modernism, national mentality, comparative analysis, social consciousness, spiritual experience, literary image.

Received: 10.11.25**Accepted:** 11.11.25**Published:** 12.11.25

Abstract: This article analyzes the formation of the image of women in Korean and Uzbek literature, its socio-psychological essence, and its connection to national mentality. The authors focus on issues of freedom, self-awareness, and women's search for a place in society in literary processes of the second half of the 20th century and the early 21st century. The study found that in the literature of both nations, the image of women has become a symbol of personal exploration, spiritual experience, and social responsibility.

MILLIY MENTALITET VA AYOL OBRAZINING BADIY TALQINI: KOREYS VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA

Shaxlo Shuxratovna Bazarova

Samarqand davlat chet tillar instituti, v.v.b.dotsenti

shahlobazarova84@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ayol obrazi, koreys adabiyoti, o'zbek adabiyoti, modernizm, milliy mentalitet, qiyosiy tahlil, ijtimoiy ong, ruhiy kechinma, adabiy obraz.

Annotatsiya: Mazkur maqolada koreys va o'zbek adabiyotlarida ayol obrazi tasvirining shakllanish jarayoni, uning ijtimoiy-psixologik mohiyati hamda milliy mentalitet bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Asosan XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlaridagi adabiy jarayonlarda ayol shaxsining erkinlik, o'zini anglash va jamiyatdagi o'rnini topish masalalari mualliflar nigohida yoritilgan. Tadqiqot

natijasida har ikki millat adabiyotida ayol obrazi shaxsiy izlanish, ruhiy kechinma va ijtimoiy mas'uliyat ramziga aylangani aniqlanadi.

НАЦИОНАЛЬНЫЙ МЕНТАЛИТЕТ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА: НА ПРИМЕРЕ КОРЕЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Шахло Шухратовна Базарова

и.о. доцента

Самаркандский государственный институт иностранных языков

shahlobazarova84@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: женский образ, корейская литература, узбекская литература, модернизм, национальный менталитет, сравнительный анализ, общественное сознание, духовный опыт, литературный образ.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс формирования образа женщины в корейской и узбекской литературе, его социально-психологическая сущность и связь с национальным менталитетом. В центре внимания авторов находятся вопросы свободы, самосознания и поиска места в обществе женщиной в литературных процессах второй половины XX века и начала XXI века. В результате исследования установлено, что в литературе обоих народов образ женщины стал символом личностного поиска, духовного опыта и социальной ответственности.

Kirish. Dunyo adabiyotshunosligida tillar va madaniyatlararo aloqalar turli makon va zamon mutanosibligi asosida shakllanayotgan badiiy tafakkur tadriji, shuningdek, ijtimoiy-psixologik omillarni adabiy model asosida tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik hamda biografik metod tamoyillari asosida tahlil qilish zamonaviy adabiyotshunoslikning muhim vazifasi sanaladi. Ma'lumki, qiyosiy adabiyotshunoslik yoki "komparativistika" deb nomlanmish fanning o'z talablari, mezonlari, metodik asoslari mavjud va bu hodisa tadqiqotchi uchun aniq bir yo'nalish belgilab beradi. Adabiyotshunos olimi G. Xalliyeva qiyosiy tahlilning metodologik vazifalarini shunday belgilab beradi: "Qiyosiy tahlilning metodologik vazifasi shundan iboratki, qiyoslash, solishtirish jarayonida tadqiqotchi bir necha metod va usullardan foydalanadi. Buning natijasida uning nafaqat obyekt haqidagi bilimlari, balki hayotdagi ba'zi muammolarni hal qilishdagi emperik bilimlari, ya'ni tajribasi ham oshadi va amaliy faoliyati imkoniyatlari kengayadi."

Shuningdek, olimi qiyosiy tahlilda dunyoqarash vazifasi haqida so'zlar ekan, qiyosiy tahlilning qanchalik keng qamrovli bo'lishi aynan inson dunyoqarashi, bilimi va saviyasining

darajalariga bog'liq. Subyektlarning dunyoqarashi ijtimoiy jamiyat dunyoqarashining boyishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Asosiy qism. Qiyosiy tahlilning baholovchi (akseologik) vazifasi esa ko'p shakl va jihatlarida namoyon bo'lar ekan. Qanday asarlar qiyoslanishidan qat'i nazar, til xususiyatlari yoki adabiy hodisa, albatta, baholanishi, ilmiy-nazariy xulosa yaratilishi lozim ekan. "Shuning uchun ham qiyosiy tahlil akseologikdir", – deya qayd etadi olim, – ya'ni uning mazmunida o'zaro o'xshashliklari va tafovutlari nuqtayi nazaridan qiyoslanadigan hodisalarning bahosi mujassamlashgan bo'ladi. Bu fandagi nazariy fikrlarni kengaytiradi va ayrim masalalar yechimida amaliy ahamiyat ham kasb etadi". Biz ishimizni tadqiqotchilikning aynan shu mezonlari asosida amalga oshirishga va ilmiy xulosalarimizni shakllantirishda komparativistika fanining har bir ko'rsatmalarini nazarda tutishga harakat qildik.

Jahon adabiyotshunosligida ayol obrazi masalasi keng tadqiq etilgan mavzular sirasiga kiradi. Boshqa mamlakat adabiy muhiti vakili ijodini o'zbek adabiyoti vakili ijodi bilan qiyosiy o'rganish va tadqiq etish millatlar va urf-odatlardagi mushtaraklik va o'ziga xoslikni ularning asarlari misolida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikki xalq adabiy-madaniy muhiti ularning adabiy durdonalari orqali yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Axborot texnologiyalarining kirib kelishi jahon iqtisodiyotida misli ko'rilmagan yangiliklarni sodir etdi. Butun jamiyat, iqtisod, madaniyat, siyosat, hattoki adabiyot ham modernizatsiyalashdi. Aslida modernizatsiya – zamon talablariga muvofiq takomillashtirish, yangilash degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiy sanoatlashtirish va siyosiy demokratlashtirish modernizatsiya jarayonining mahsulidir. Aynan biz koreys va o'zbek nasrida yangilanishlar, evrilishlar, bir so'z bilan aytganda, adabiyotning modernizatsiyalashuv jarayoni masalalarini tadqiqotimiz doirasida tahlil qilamiz. Koreyada modernizatsiya jamiyatni sanoatlashtirish bilan bir vaqtda sodir bo'lgan siyosat, madaniyat va iqtisodiyotdagi o'zgarishlarda o'zligini namoyon etdi. Koreya yoki O'zbekistonda modernizatsiya jarayoni osonlik bilan amalga oshmadi. Bu jarayonda qarshiliklar, to'sqinliklar va kurashlar sodir bo'ldi. Lekin yangilik doimo qiyinchilik bilan yuzaga kelishi tarixdan bizga ma'lum bo'lgan haqiqatdir. Sanoatlashgan jamiyat vujudga kelishi bilan xotin-qizlar ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatda ishtirok eta boshladilar, xotin-qizlar rahbarlik qiladigan sohalar soni ko'payib, ularning mas'uliyati ham oshdi. Feodal jamiyatda faqat oila doirasida yashagan ayollarning hayoti sanoatlashgan jamiyatning boshlanishi bilan katta o'zgarishlarga duch keldi. Ayrimlarning aytishicha, sanoatlashtirish ayollarga iqtisodiy faoliyat orqali ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatini bergan. Binobarin, modernizatsiya davrida har ikki mamlakatda ayollar va ayollar harakatining holatiga nazar tashlasak, ilg'orlikni, peshqadamlikni ko'rishimiz mumkin.

Pak Van So va Oydin Sobirova o'z mamlakatlari adabiy doiralarida, ayniqsa, ayollar adabiyotida muhim o'rinlarni egallagan ijodkorlardandir. Ikki muallifning badiiy olamida juda

ko'p o'xshashliklar mavjud. Ikkala yozuvchi ham ayollar hayotini, ularning qalb kechinmalarini poetik aks ettiradi. Ularning asarlarida ayol millat tarbiyachisi, jamiyat rivojida beqiyos hurmatga, e'tiborga ega inson sifatida tasvirlanadi. Shuning bilan birga, ikki davlat, ikki mamlakat o'rtasidagi ijtimoiy, madaniy, siyosiy aloqalarning mustahkamligi, ularning sharqona tarbiyasidagi mushtarak jihatlar adabiy asarlarining mohiyatiga singdirib yuborilgan.

Har ikkala millat tarixida ham, adabiyotida ham ayollarning o'rni va xizmatlari beqiyos. Ayol oilani tebratadi, farzandni dunyoga keltiradi. Ularning tarbiyasida ayolning xizmati katta. Demak, jamiyat taraqqiyotida ham ayollar xizmati asosiy o'rinda turadi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Shu ma'noda badiiy adabiyotning asosida ham ayol obrazi, uning kechinmasi, tuyg'ulari mujassam. Koreys milliy adabiyotida ayol obrazi (roli)ni 4 ga bo'lish mumkin: mehnatda mas'uliyat, farzand tarbiyasi, oilaviy salomatlik muammolari va tug'ish muammolari. Bular ichida eng muhimi faqat ayollarga xos bo'lgan tug'ish masalasi asosiy planda tasvirlangan.

Bu to'rtga bo'linish holatini o'zbek ijodkorlari asarlarida uchratishimiz mumkin. Tadqiqot obyektimiz bo'lgan ijodkor – Oydin Sobirova va Pak Van Solarning ijodida ham aynan ayollar obrazida mana shu to'rt jihatni kuzatishimiz mumkin:

Jumladan, o'zbek va koreys ayollarida farzand dunyoga keltirish holati va uning ikki ijodkor asarlarida voqelanishi davr ijtimoiy muhiti va ayol ruhiyatini yoritishda muhim sanalishi tahlillar orqali yanada mukammallashadi.

Oydin Sobirovaning "Chaqaloqqa chakmancha", 'Kelin o'g'il tug'ipti', Pak Van Soning "Sarob kapalak" hikoyalarida aynan ayollarning ona bo'lish holatlari tasvirlanadi. Oydin Sobirovaning "Chaqaloqqa chakmancha" hikoyasida Erqo'ziyevaning farzandini dunyoga keltirish jarayonida ularning nobud bo'lishi tasvirlanadi. "Ayniqsa, beshinchi marta tug'ishdagi qiynalishlar kampirning "ha, bo'laqol, mana tushdi-tushdi", deb qornining boshidan ezishlari, ko'rpaga yotqizib, u yoqdan-buyoqqa yumalatishlari, og'ziga soch tiqib o'qchitishlari esiga tushib yuragi duk-duk ura boshladi. Ming azob bilan tuqqan bolasining paxtadek bo'lib, oyoq-qo'llarini shalviratib, cho'zilib yotishi ko'ziga ko'rinib ketdi". Hikoyada ijodkor ayol qadrini, insonlarning dunyoqarashi, shifoxonaga ayol kishining borib farzand dunyoga keltirishi uyat sanalishi orqali davr muhitini namoyon qilmoqda. Pak Van Soning "Sarob kapalak" ("환각의 나비") hikoyasida Yonju obrazi va hayot tarzi tasvirlanadi: "영주의 어머니는 영주를 낳은 지 십년 넘어 아이를 못 갖다가 영숙을 낳았고 막내 영탁을 낳았다. 영탁과 영주의 나이 차이는 열세살이었다. 영탁은 유복자였고 아버지의 유산은 집 한채가 다였다. 어머니는 하숙을 쳤고 영주는 그런 어머니를 도와 생계를 꾸려가는데 손을 보탰다" ("Yonju onasi Yonjuni tuqqanidan so'ng 10 yildan ortiq vaqt mobaynida farzand ko'ra olmadi va keyin Yonsukni, undan keyin kenja farzandi Yontakni tug'di. Yontak va Yonju o'rtasidagi yoshining farqi o'n uch yil edi. Yontak dadasi

vafotidan keyin tug‘ilgan bo‘lib dadasidan qolgan uy uning merosi edi. Onasi pansionat ochib Yonju unga tirikchilikka yordam berar edi” – tarjima o‘zimizniki). Har ikkala hikoyada ayol qismati, uning farzand dunyoga keltirish va uni tarbiyalab kamolga yetkazish jarayoni tasvirlanadi.

Oydin Sobirovaning hikoyalarida ayol itoatgo‘y, jamiyatdagi barcha tartiblarga so‘zsiz buysunivchi sifatida tasvirlansa, ayrim asarlarida ayol isyonkor. U erkka intiladi, u ozodlikni sevadi. Adibaning “Asl yor” hikoyasida Po‘latjon va Malohatning sevgi-muhabbati tasvirlanadi. Po‘latjon frontda qahramonlarcha jang qilib bir oyog‘idan ajralib, shifoxonaga tushadi. Uning ko‘ksini Qizil Yulduz bezab tursa–da, kayfiyati nihoyatda tushkun edi, yashashni istamayotgan edi. Sevgilisiga bu holatda ko‘rinish u uchun nihoyatda og‘ir edi. Uning ko‘zlaridan iztirob yoshlari tinimsiz oqar, u hech kimni ko‘rishni xohlamayotgan edi. Shunda shifokor Liza Aranova: “Ana xolos, ko‘ksingizda Qizil Yulduz nur sochib tursa–da, siz uni yosh bilan yuvib o‘tirsangiz! Mardlik faqat jangda emas, bunday hayotda ham o‘zini ko‘rsatishi kerak. Shunday emasmi, axir?!” – deb tasalli beradi. Shunda Po‘latjon: “Singlim, to‘g‘risini aytsam, orzu o‘tlarini so‘ndirib bo‘lmayator”, – deydi.

Hikoyada shijoatli beshta qiz obrazi ham mavjud bo‘lib, ular frontga borish uchun komissariatga murojaat qilishadi. Ularning ichida Po‘latjonning sevgilisi Malohat ham bor edi. Uning maqsadi Po‘latjonni qidirib topib, birgalikda fashistlarga qarshi mardona kurashish edi. Ammo u Po‘latjonni shifoxonada topadi. Po‘latjon bir oyog‘i yo‘q holatda Malohatga ko‘rinishni istamaydi. Men hech kimga bu holatda ko‘rinishni istamayman, garchi qahramon bo‘lsam–da, deb shifokoriga aytayotganida, Malohat shijoat bilan eshikni ochib kirib keladi: “Qiz ortiq takalluf kutib turolmadi, to‘g‘ri eshikni ochib ichkariga kirdi, o‘zini Po‘latjonga qarab otdi. Uning bo‘ynidan quchoqladi, ko‘zlaridan o‘pdidi. Har ikkisining ham tiliga gap kelmay qoldi. Boshqalar ham qotib qolishdi, churq etuvchi kishi bo‘lmadi” (“Asl yor”, 76-b.)

Xulosa. Oydin Sobirova hikoyalarida ayollar nihoyatda faol obraz sifatida oila, jamiyat taraqqiyotida asosiy vazifalarni bajaruvchi shaxslar sifatida tasvirlanadi. Bu kabi tasvirlar koreys milliy adabiyotida ham mavjud bo‘lib, eskicha qarashlar, an‘analar ayrim holatlarda bunga to‘sqinlik qilgan. Koreys va o‘zbek adabiyotidagi ayol obrazlari orqali ikki xalqning madaniy qadriyatlari, tarixiy tajribasi va ijtimoiy tafakkuri aks etadi. Ayol obrazi faqat estetik kategoriya emas, balki jamiyatning ma‘naviy o‘sish darajasini ko‘rsatuvchi mezondir. Har ikkala adabiyotda ham ayol shaxsining erkinligi, ruhiy iztiroblari va ijtimoiy o‘zgarishlarga munosabati badiiy tahlil markaziga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pak Vanso. Koreys ayolining ichki dunyosi. Seul, 2005.
2. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. Toshkent, 1996.

3. Базарова, Ш. (2024). Судьба женщины в рассказах Айдын Собировой. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(2/S), 24-28.
4. Shuxratovna, B. S. (2024). O 'zbek va koreys maqollarida genderlik masalasi. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 83-86.
5. Bazarova, S. S. (2022). Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 155-164.
6. Sh, b. S. (2024). Saida zunnunova va pak vanso hikoyalarida konseptlar hamda tipologik o'xshashliklar. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 514.
7. Shuxratovna, B. S. (2024). OYDIN SOBIROVA IJODIDA AYOLLAR OBRAZI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(1), 55-58.
8. Bazarova, S. S. (2022). LI XE JO ASARLARIDA GENDER TENGLIK MUNOSABATINING ILGARI SURILISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 180-188.
9. Shuxratovna, B. S. REFLECTIONS OF FAMILY, GENDER, AND SOCIAL VALUES IN UZBEK AND KOREAN PROVERBS.
10. Shuxratovna, B. S. (2025). Through the Eyes of a Woman: Realism and Resistance in Oydin's Fiction. American Journal of Philological Sciences, 5(05), 245-246.